

## TADBIRKOR-ZAMONAVIY MENEJER SIFATIDA

**Obidova Feruza Yaxyoevna**

Jizzax politexnika instituti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrası dots.v.b

E-mail: [obidova.feruza@bk.ru](mailto:obidova.feruza@bk.ru)

**Qushboqov Javlon Axmad o‘g‘li**

Jizzax politexnika instituti 2-kurs talabasi

### ANNOTATSIYA

Maqolada tadbirkorlarning rahbarlik faoliyatini tashkil etish va boshqarishda bozor talablariga mos uslublarni qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish, zamonaviy boshqaruvchilarga o‘z faoliyatini tashkil etishda sifat jihatidan yangi va innovatsion usullarini joriy etish masalalari o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** tadbirkor, mehnatni vazifaviy taqsimlash, lavozim, boshqaruv qarori, boshqaruv tizimi, boshqaruv usullari, boshqaruvchanlik ko‘lami, menejer, menejerni o‘zini o‘zi nazorat qilishi.

## ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬ- КАК СОВРЕМЕННЫЙ МЕНЕДЖЕР

**Обидова Феруза Яхёевна**

доцент в.и.

кафедры Экономики и менеджмента Джизакского политехнического института

**Кушбоков Жавлон Ахмад угли**

Студент 2 курса Джизакского политехнического института

### АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается организация и руководство предпринимательской деятельности, с использованием методов, соответствующих требованиям рынка и расширение использования возможностей современного управления в организации управленческой деятельности и внедрение изучения вопросов с использованием современных и инновационных методов.

**Ключевые слова:** предприниматель, распределение труда, положение управленческие решения, система управления, методы управления, масштаб управляемости, менеджер, самоконтроль менеджера.

## AS AN ENTREPRENEUR-MODERN MANAGER

**Obidova Feruza Yahyoevna**

Senior Lecturer, Department of Management, Jizzakh Polytechnic Institute

**Kushbakov is the son of Javlon Akhmad**

2nd year student of Jizzakh Polytechnic Institute

### ABSTRACT

The article discusses the organization and management of entrepreneurial activities, using methods that meet market requirements and expanding the use of modern management capabilities in organizing managerial activities and introducing the study of issues using modern and innovative methods.

**Keywords:** entrepreneur, distribution of labor, position of management decisions, management system, management methods, scale of manageability, manager, manager self-control.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ham rahbarlarni ish faoliyatiga tubdan o‘zgartirishlar, qo‘shimchalar kiritilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yilning 4-avgust kuni davlat xizmatini isloh qilish va boshqaruvda natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videosektor yig‘ilishida, navbatdagi muhim vazifa - markaziy idoralarni transformatsiya qilish orqali fuqarolarga xizmat qiladigan ixcham va samarali boshqaruv tizimini yaratish ekanligini ta’kidlab o‘tdilar. Bundan buyon, rahbarlik lavozimiga nomzodlar mahallada odamlar bilan ishlagan, ularning muammosini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, hal qilgan kadrlar orasidan tanlab olinadi.[8: <https://yuz.uz> ]

Rahbar kadrlar faoliyatini tashkil etish ularni boshqaruvdagi yondashuvlarini tahlil qilish har qachongi davrdan ko‘ra o‘ziga xos murakkabdir. Korxonalar faoliyatini tashkil etish va boshqarishda bozor talablariga mos uslublarni qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish zamonaviy boshqaruvchilarga juda bog‘liq. Xususan, biznes sektorini rivojlantirishda zamonaviy boshqaruvning o‘rni jiddiy ekanligini ko‘pchilik rahbarlar biladilar. Chunki zamonaviy boshqaruv uslublarini nafaqat boshqaruvchi-menejerlar balki, ishbilarmon-tadbirkorlar ham o‘zlashtirishlari shart. Zero, korxonada boshqaruvida foyda olishni maksimallashtirish epchil va chaqqon yondashuvlarni talab etadi. Zamonaviy menejment tamoyillarini amaliyotga qo‘llanilishi nafaqat iqtisodiy balki, ma’naviy yetuklik va madaniyatning ustuvor darajada shakllanganligini ham taqozo etadi. Fikrimizcha, jamiyatning etuklik darajasidan kelib chiqadigan ma’naviy-axloqiy

me'yorlar bilan tartibga solish, bugungi kunda nafaqat biznes sohasini, balki butun jamiyatning boshqarilishini ham qamrab bormoqda. Shuning uchun hozirgi davrda zamonaviy menejer-boshqaruvchilarni yetishtirishga alohida e'tibor berish kerakki, ayni paytda milliy iqtisodiyotda modernizatsiyani faollashtirish, ya'ni iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonlarida, bu juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizga ma'lumki, korxonalar bu savdo – sotiq, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish ko'lamida foydaga erishish uchun yuritiladigan faoliyatni qamrab oluvchi bozor subyekti. Har qanday korxonalar pulni ko'paytirishga yoki ko'proq daromad olishga intiladi va shu asosida bozor raqobatida ishtirok etadi.

Hozirda mamlakatimizda o'zining shaxsiy fikri, prinsiplari va sohaga yangicha yondashuvi bo'lgan yosh rahbar kadrlarni mas'uliyatli lavozimlarga tayinlashga alohida e'tibor qaratilyapti. Xalqimizning katta qismi yoshlar tashkil etishi ham, zamonaviy yetakchilardan har tomonlama bilimli va tashabbuskor, eng avvalo, o'z ishiga nisbatan fidokorona yondashuvni talab etadi. Zamonaviy boshqaruvda bu kabi ma'muriy usullar emas, liderlik, yetakchilik, jamoa bilan ishlash, xodimlarni maqsadli ishlashga o'rgatish, o'zining ilg'or g'oyalari ortidan ergashtira olish kabi ilg'or usullar ustuvor. Bugungi kun yosh rahbarlar oldiga o'z ishiga ana shunday innovatsion va g'oyaviy ustunlik orqali yondashuvni talab qilmoqda. Davlat idoralari xalqqa, jumladan, tadbirkorlarga yaqin ko'makchi bo'lishi zarur.

Davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish maqsadida davlat xizmatiga malakali mutaxassislarini jalb etishga qaratilgan yagona kadrlar siyosatini shakllantirish zarur. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan kompaniyalar O'zbekistonda ham, uning tashqarisida ham yaxshi ma'lum". Bu kabi qo'shma korxonalar va umuman bozor munosabatlari sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan turli tarmoqdagi korxonalar o'z faoliyatlari mobaynida moddiy manfaatlarga erishib boradilar. Moddiy manfaatlar esa o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Unga erishishning o'ziga xos mashaqqatlari mavjud. Menejerlar va ishbiarmon-tadbirkorlar ana shunday mashaqqatlarni uddalashi kerak. Zamonaviy menejment tizimini rivojlantirish va uni takomillashtirishni amalda joriy etishning huquqiy tomonlari qabul qilingan va yangidan qabul qilinayotgan me'yoriy hujjatlarda o'z aksini tobora chuqurroq topib bormoqda. Bu boradagi tajribalar yanada mukammallashtirilmog'unda. Ammo zamonaviy menejment tizimi faoliyatini yanada yaxshilash maqsadida amalga oshiriladigan vazifalar ko'lamini kuchaytirish zarur.

Respublika hukumati tomonidan ham zamonaviy menejment tizimini amalda joriy etilganlik darajasini baholash masalalarida qiynayotgan ayrim muammolarni hal etishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ko'rib borish davr talabiga aylanmoqda. Chunki hududiy va idoraviy boshqaruv tizimlarida ishlayotgan ayrim ma'muriy xodimlarning tashabbusizligi va ushbu muhim davlat vazifasiga bo'lgan yuzaki

yondashuvi respublikada modernizatsiya tarzda boshqaruvni amalga oshirishda to‘siq bo‘layotgan asosiy sabablardandir.

Zamonaviy menejment tizimining takomillashuvi shuni talab etadiki, moddiy manfaatlarga erishish imkonini beruvchi kadrlar va ishchi xodimlar, ayniqsa, hozirgi yoshlar o‘z mehnatlarini hozirgi modernizatsiya jarayonlariga moslashtira olishlari shart. Boshqacha aytganda, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlari korxonalarining boshqarilishini yanada zamonaviy bo‘lishini talab etadi. Buning uchun zamonaviy rahbar kadrlar mehnatini ilmiy tarzda tashkil etish va ijodkorlikka xos yondashuvlarni qo‘llash choralari ko‘rib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Albatta, bunda rahbarlarning o‘zlari qobiliyatli ekanliklarini ham namoyon eta oladigan fazilatlarga ega bo‘lishlari lozim. Vatanga, yurtga, elga bo‘lgan sadoqatini ko‘rsata olishlari kerak. Shu nuqtai nazardan, korxonalarni boshqaruvchi menejerlar faqat ishlab chiqarish omillarigagina tayanib ish ko‘rsalar, yaxshi natijalarga erisha olmasliklarini allaqachon anglab etganlar. Masalan, xorijiy davlatlarda firma foydasini ko‘zlab, atrof-muhitni buzish jamiyat manfaatlariga zid ekanligi yoki o‘z foydasini deb sherigini aldash munofiqlikdan ekanligi tan olingan.

Iqtisodiyotda davlatning ishtirokini qisqartirishga, davlat-xususiy sheriklik prinsiplarini rivojlantirishga, investitsiya siyosatini faollashtirishga, eksport salohiyatini va tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga, erkin tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi byurokratik to‘siqlarni olib tashlashga yo‘naltirilgan bir qator kompleks dasturlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy sohadagi qayta o‘zgartirishlar diqqat-e’tibor markazida ekanligi, ayniqsa, qishloq joylarda va chekka hududlarda aholining uy-joy maishiy sharoitlarini yaxshilash, kompleks infratuzilmani rivojlantirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha qabul qilingan qarorlarning ijrosini ta’minlanayotganligi, ko‘rilayotgan chora-tadbirlar respublika aholisini turli toifalarining moddiy farovonligi, hayot darajasi va sifati oshishiga muayyan darajada ko‘maklashdi.

Shu bilan birga, mamlakatni yanada jadal rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining amaldagi yondoshuvlari va ish usullarini qayta ko‘rib chiqish zarurligini, uning faoliyatini tashkil etishning sifat jihatidan yangi va innovatsion usullarini joriy etishni, davlat siyosati amalga oshirilishi va birlashtirilgan sohalarida aniq natijalarga erishish uchun idoralar rahbarlarining mustaqilligini oshirishni taqozo etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan har qanday xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish va yuritish ko‘proq samarali axborotlar bilan ta’minlanganlik darajasiga bog‘liq. Bunday axborotlarni asosan ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va tahlil qilish orqali olish mumkin. Bu esa o‘z navbatida oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilishga asos bo‘ladi va

xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyatini yanada samarali boshqarish imkoniyatiga erishiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Mirziyoev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" G'-T.: O'zbekiston, 2017.-104 b.
2. Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik vazifalari amalga oshirilishi samaradorligi uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining mas'uliyatini oshirishga doir birinchi navbatdagi chora tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni Jizzax haqiqati. 2019 yil 2 fevral
3. Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik vazifalari amalga oshirilishi samaradorligi uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining ma'suliyatini oshirishga doir birinchi navbatdagi chora tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni Jizzax haqiqati. 2019 yil 2 fevral
4. Обидова Ф. Я., Умарова З. О. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬ-КАК ЛИДЕР //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2019. – №. 2-6. – С. 50-52.
5. Умарова З. О., Обидова Ф. Я. ЗНАЧЕНИЕ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2019. – №. 2-6. – С. 53-57.
6. Обидова Ф. Я. и др. РЕФОРМИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2017. – Т. 13. – №. 11-13. – С. 87-90.
7. Rasulova, Sharifa Gaybullaevna, and Feruza Yahyaevna Obidova. "ISSUES OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT." Theoretical & Applied Science 9 (2019): 426-429.
8. Obidova, F., and Z. Umarova. "FOREIGN EXPERIENCE OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT." Экономика и социум 5-1 (2021): 376-379.
9. Obidova, F. Ya. "GREEN INNOVATION IN BUSINESS MARKET." Экономика и социум 10 (2020): 191-194.
10. Obidova, Feruza Yahyoevna. "PROSPECTS FOR INNOVATIVE DEVELOPMENT OF TOURISM." Актуальные научные исследования в современном мире 4-10 (2021): 91-95.
11. Obidova, Feruza Yahyoevna. "QURILISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI VAHOLASH USLUBIYOTI." Educational Research in Universal Sciences 2.4 (2023): 74-78.
12. Feruza, Obidova. "How to Create Effective Marketing Strategies for Your Business." Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences 2.3 (2023): 12-17.